

O‘ZBEK INTERNET TILI ORQALI SHAKLLANAYOTGAN YANGI MADANIY KODLAR

Robiyaxon AKBARALIYEVA,

Andijon davlat pedagogika institute 1-bosqich tayanch doktoranti,

akbaraliyevarobiyaxon@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677459>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek internet tilida shakllanayotgan yangi madaniy kodlar, ularning paydo bo‘lish omillari va jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli muloqot muhitida til birliklarining transformatsiyasi, memlar, qisqartmalar, aralash til unsurlari hamda yangi semantik qatlamlarning yuzaga kelishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, internet tili orqali milliy identifikatsiyaning yangicha ifodalanishi va yoshlar nutq madaniyatidagi o‘zgarishlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: internet tili, madaniy kodlar, raqamli madaniyat, sotsiolingvistika, diskurs, memlar, qisqartmalar, milliy identifikatsiya, til transformatsiyasi, yoshlar nutqi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются новые культурные коды, формирующиеся в узбекском интернет-языке, факторы их возникновения и влияние на коммуникативные процессы в обществе. В исследовании анализируется трансформация языковых единиц в условиях цифровой коммуникации, включая мемы, сокращения, элементы смешения языков и формирование новых семантических слоёв. Особое внимание уделяется переосмыслению национальной идентичности через интернет-язык и изменениям в речевой культуре молодёжи подходов.

Ключевые слова: интернет-язык, культурные коды, цифровая культура, социолингвистика, дискурс, мемы, сокращения, национальная идентичность, языковая трансформация, речь молодёжи.

Annotation. This article examines the emergence of new cultural codes in the Uzbek internet language, the factors influencing their formation, and their impact on communicative processes in society. The study analyzes the transformation of linguistic units in digital communication, including memes, abbreviations, code-switching, and the development of new semantic layers. It also explores the reconfiguration of national identity through online language practices and changes in youth speech culture perspectives.

Key words: internet language, cultural codes, digital culture, sociolinguistics, discourse, memes, abbreviations, national identity, language transformation, youth speech.

Bugungi globallashuv davrida internet tarmog‘i, xususan, ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Internet bu ilmiy termin sifatida yagona standart asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog‘idir. Internetga joylangan har qanday nutq zamonaviy til sanalib, bu lingvistik hodisaning turlicha talqin etilayotganining guvohi bo‘lamiz. K. Y. Ivanov, O. E. Kotova, V. V. Svinsov, A. I. Karaseva o‘z ishlarida yangi leksik qatlamni turlicha nomlaydilar: “Butunjahon o‘rgimchak”, “internet-til”, “internet-uslub”, “kompyuter



argosy”, “Runeta tili” va boshqalar. Mazkur zamonaviy til yangicha lingvokulturologik hodisalarni ham vujudga keltirmoqda. Bu hodisalardan biri yangicha madaniy kodlarning shakllanishi hisoblanadi. Madaniy kodlar – bu til va muloqot orqali xalqning qadriyatlari, urf-odatlar, an’analari va identifikatsiya mexanizmlarini ifodalovchi belgilar tizimi. V. N. Teliyaning fikricha, madaniyat kodlari muayyan madaniy mazmuni kodlashtirish maqsadida qo‘llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir. Amerikalik psixolog va biznes-maslahatchi K. Rapay o‘zining “Madaniy kod” kitobida ta’kidlashicha, kodlar ongimizda biror-bir tushunchaga bog‘liq bo‘lgan obrazlarni belgilab beradi, madaniyatda o‘rinlashgan obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo‘ladi.[1] D. Xudoyberganova madaniyat kodini insoniyatning arxipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o‘zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari sifatida ta’riflaydi.

Foydalanuvchilar tomonidan Facebook, Telegram, Instagram, Youtube kabi ijtimoiy tarmoqlarning izohlar qismida bir qancha so‘z, so‘z birikmasi hamda gaplarning mashhur bo‘lib ketgani barchaga ayon. Ulardan bir qancha misollarni quyidagicha izohlash mumkin:

“*Meni aytyapti*” degan jumla internet tarmog‘idagi izohlar qismining deyarli har 3 tadan 1tasida yozilgan bo‘lib, bu jumlaning, asosan, ijobiy ruhdagi mavzular yoritilgan videoroliklar bilan tanishgan yoshlar tilida uchratishimiz mumkin. Ushbu jumla orqali biroz nokamtarlik bilan birga ijobiy tarafga yonbosishga intilish ruhi ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek mentalitetida esa ezgulikka intilish g‘oyalari asosiy o‘rin egallaydi. “Aytmoq” fe‘lining uchinchi shaxs birlikda ishlatilishi ham mavhumlikni kuchaytiradi va “men shunday insonman” degan jumladan ko‘ra bo‘yoqdor va o‘quvchiga tez yetib boradi.

“*Nima, meni eshik qisganmi?*” ritorik so‘roq gapning maqsadi “hech kimdan kam emaslik” ma’nosini gap mazmuniga yuklash. “Mening bu voqea-hodisa yoki vaziyatni tuzatishga qurbim yetmaydimi?” shaklidan ko‘ra kichik yumor ham aralashgan yuqoridagi jumla o‘zbek yoshlarining vaziyatga nisbatan sovuqqonlik bilan yondashmayotganining ifodasidir.

“*Qizlarning krashi*”, “*bu gapiingga respekt*” kabi jumlalardagi “krash”, “respekt” so‘zlari tillararo almashinuv yuz berayotganidan darak beradi. Xususan, “orzusidagi predmet, harakat-holat, inson” yoki “qoyil, ofarin”, “lol qolmoq” ma’nolarida qo‘llaniluvchi bu so‘zlar yoshlar orasida kodlashish hodisasining faol harakatda ekanidan dalolat beradi. Yoki “*mening fkusimga to‘g‘ri kelmaydi*” jumlasini

bir qarashda ancha qo‘pol hamda or-nomus masalalarining toptalgani shaklida yangraydi. Ya'ni “fkus” (did) ga to‘g‘ri kelmaydigan inson so‘zlovchi tomonidan o‘ziga nisbatan quyi pog‘onaga qo‘yiladi.

Yuqorida keltirilgan ikki misoldan ko‘rinib turibdiki, ba‘zan kodlashish va tillarning aralashuv jarayoni milliy madaniyatimiz uchun ijobiy hosilalar emas, aksincha qadriyatlarimizga zid shakllarni ham yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas.

“*Shok xabar bor*”. Mazkur gap ham ijobiy, ham salbiy holatlar uchun ishlatiladi. Insonlarning diqqatini tezda jalb qilish maqsadida qo‘llanilgan ushbu jumlada tibbiyotdagi shok holati, ya‘ni insonning biror tana a‘zosining faol harakatda bo‘la olmasligi bilan bog‘liq kasallik nomining keltirilishida tag ma‘no mavjud. Chunki inson biror xushxabar yoki noxush ma‘lumotga duch kelganida bir soniya boshqarib bo‘lmas holatda qoladi. Bu esa “shok” ka o‘xshatiladi.

Milliy urf-odatlar va marosimlarni ifoda etuvchi tilaklar, duolar, niyatlar ham internet tilida faol qo‘llanilmoqda. Ba‘zilari esa bir qancha o‘zgarishlarga uchragan. Bu holat, asosan, jamiyat dunyoqarashining o‘zgarayotganidan dalolat beradi:

Xususan, kitob mutolaasi targ‘ibotiga bag‘ishlangan kanallarning izoh qismida “*Bizning kitoblar fikrlashni o‘zgartiradi*”, “*Nozik did egalari uchun*”, “*Miya va qalbni uyg‘otuvchi bestseller kitoblar*” kabi birliklarda kitobxonlikning xalq orasida ijobiy baholanishi, nozik did egalorigina kitobga oshno bo‘lishi haqidagi tasavvurlar bilan birga faol kitobxonlikka targ‘ibot ma‘nolari ham mujassamlashgan.

Ikki yoshning to‘y marosimi, yangi tug‘ilgan chaqaloq kulgusi kabi videoroliklar namoyishi ostidagi izohlar (kommentariya) qismida ayol foydalanuvchilar tomonidan “*Ko‘z tegmasin*” jumlasini ko‘p qo‘llaniladi. Ko‘z tegish holati o‘zbek xalqi orasida keng yoyilgan. Biror havas qilgulik vaziyatga nisbatan ishlatiladigan bu ibora *bardavom bo‘lsin, bu quvonchli holat noxush vaziyatga almashmasin* degan yaxshi niyatda aytiladi. Aynan ayollar nutqida ishlatilishi ham alohida ma‘noga ega.

Yoshlar tilida tez tarqaluvchi jargon (bug, patch, merge qildim, deploy qildik, pull qildim) kommunikativ jihatdan tejamkor, lekin rasmiy va o‘quv matnlarida me‘yoriy bir xillikni susaytiradi. AyTI kabi grafemik variantlar esa internet qidiruvida IT bilan bir xil semantik hududga bog‘lanmay, ma‘lumotdan foydalanish ko‘rsatkichlarini pasaytirishi mumkin.[2]

Shunigdek, ijtimoiy tarmoqlardagi vizual-madaniy kodlarga ham duch kelamiz, jumladan, □ (ibodat), ❤️□ (yoqtirmoq), □ (juda yaxshi), □ (qayg‘u), □, □(milliy taomlar) kabi emoji, stiker va GIFlar milliy qadriyat va streotiplarni vizual shaklda uzatishga xizmat qilmoqda.



Xulosa qilib aytganda, internet tili orqali shakllanayotgan yangi o‘zbekcha madaniy kodlar milliy qadriyatlar, stereotiplar va identifikatsiyani ifodalaydi, leksik, vizual, metaforik va pragmatik vositalar orqali uzatiladi, raqamli madaniyat va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun yangi empirik maydon yaratadi. Shunday qilib, o‘zbek internet tili yangi madaniy kodlar yaratish va ularni milliy identifikatsiya vositasi sifatida uzatishda markaziy rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo‘riyev I. Lingvomadaniy kodlar va ularning turlari haqida// www.oriens.uz manbasi asosida.
2. Maxammadov B. I. Microsoft Vindows operatsion tizimi terminologiyasining lingvistik va madaniy moslashuv aspekti (o‘zbek, ingliz va turk tillari misolida). Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon. 2019.
3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini//O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019.
4. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. Toshkent: Akademyashr, 2012.
5. www.ziyo-uz.com ma’lumotlari.